



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 3-son

VOLUME 3 / ISSUE 3 / 2023
DOI:10.51788/TSUL.CCJ.3.3.

ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



Crossref
Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

N. SALAYEV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori – bosh muharrir

S. SAMADOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i v.v.b. – bosh muharrir

D. BAZAROVA

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor – bosh muharrir o'rinbosari

K. HAKIMOV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – mas'ul muharrir

M. RUSTAMBAYEV

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

F. RAXIMOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

Q. ABDURASULOVA

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

V. DAVLYATOV

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktori o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

S. NIYOZOVA

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

SH. HAYDAROV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. KABULOV

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. UMIRZAKOV

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi Kriminologiya kafedrası katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

A. BARATOV

TDYU Kriminalistika va sud ekspertizasi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi

I. ASTANOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. PULATOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-2179

© Toshkent davlat yuridik universiteti



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Yermashev Jengis Maratovich

KONTRABANDA JINOYATINING OBYEKTIV BELGILARI 4

Maxmadiyarova Xumora O'ktamovna

JINOYAT ISHINI TORTISHUVGA ASOSAN YURITISHDA TARAFLAR FAOLLIGINI
KUCHAYTIRISH14

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Базарова Дилдора Бахадировна, Хан Виталий Вячеславович

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПРИНЦИПОВ В УГОЛОВНОМ
СУДОПРОИЗВОДСТВЕ УЗБЕКИСТАНА24

Sultonov Abdulla Azamatovich

EKSPERTLARGA, TARJIMONLARGA, MUTAXASSISLARGA PROTSESSUAL
VAZIFALARNI BAJARGANLIK UCHUN HAQ TO'LASH38

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.3./XEAI2412>
UDC: 343.851(045)(575.1)

KONTRABANDA JINOYATINING OBYEKTIV BELGILARI

Yermashev Jengis Maratovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0003-2967-5266
e-mail: j.ermashev1977@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyat turi sifatida kontrabanda jinoyatining obyektiv belgilari, ya'ni ushbu qilmishning obyekti va obyektiv tomoni atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, ushbu maqolada kontrabandaning obyektini tahlil qilishda uning umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlariga (vertikal tasnif), shuningdek, bevosita asosiy, bevosita qo'shimcha va bevosita fakultativ obyektlari (gorizontal tasnif) yuzasidan turli munozaralar tahlil qilingan hamda muallifning xulosasi bayon etilgan. Shuningdek, maqolada kontrabanda predmeti masalasiga ham e'tibor qaratilib, milliy jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan kontrabanda predmetlarini ikki turga ajratgan holda tasniflash va tahlil qilish taklif etilgan. Maqolada kontrabanda jinoyati bojxona nazoratini chetlab, bojxona nazoratidan yashirib, bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz, boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib olib o'tish orqali amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Bunda ushbu jinoyatning obyektiv tomonini ifodalovchi har bir harakat mazmuni yuzasidan olimlarning qarashlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining tushuntirishlari atroflicha tahlil qilingan hamda har bir holat bo'yicha muallifning xulosalari bildirilgan.

Kalit so'zlar: kontrabanda, jinoyatning obyekti, jinoyatning obyektiv tomoni, jinoyat predmeti, jamoat xavfsizligi, bojxona nazorati, bojxona nazoratidan yashirish, bojxona hujjatlari, bojxona vositalari, aldash yo'li bilan foydalanish, deklaratsiya, o'tkazish.

ОБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ КОНТРАБАНДЫ

Ермашев Женгис Маратович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье подробно исследуются объективные особенности преступления контрабанды как вида преступления против

общественной безопасности, то есть объект и объективная сторона этого деяния. В частности, в данной статье при изучении объекта контрабанды рассматриваются различные суждения относительно его общих, специальных, сходных и прямых объектов (вертикальная классификация), а также непосредственно основных, непосредственно дополнительных и непосредственно факультативных объектов (горизонтальная классификация), на основе анализа сформулированы выводы автора. Уделяется внимание проблеме предмета контрабанды и предлагается при анализе предметов контрабанды, предусмотренных национальным уголовным законодательством, классифицировать их на два вида. При исследовании объективной стороны контрабанды указывается, что данное преступление совершается путём уклонения от таможенного контроля, сокрытия от таможенного контроля, использования обманно изготовленных таможенных документов или документов без декларирования, использования декларации, написанной на другое имя. При этом были обстоятельно проанализированы мнения учёных относительно содержания каждого деяния, представляющего объективную сторону данного преступления, разъяснения Пленума Верховного суда Республики Узбекистан, представлены авторские выводы по каждому случаю.

Ключевые слова: контрабанда, объект преступления, объективная сторона преступления, субъект преступления, общественная безопасность, таможенный контроль, сокрытие от таможенного контроля, таможенные документы, таможенные инструменты, мошенническое использование, декларирование, передача.

OBJECTIVE SIGNS OF SMUGGLING

Ermashev Jengis Maratovich,
Independent Researcher
of Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. *This article examines in detail the objective features of the crime of smuggling as a type of crime against public safety, that is, the object and objective sides of this act. In particular, in this article, when analyzing the object of smuggling, various arguments are considered regarding its general, special, similar, and direct objects (vertical classification), as well as directly basic, directly additional, and directly optional objects (horizontal classification). The author's conclusions are analyzed and formulated. The article also pays attention to the problem of contraband and proposes a classification and analysis of contraband provided for by national criminal legislation, dividing it into two types. This article, paying attention to the objective side of smuggling, indicates that this crime is committed by evading customs control, hiding from customs control, using fraudulently produced customs documents or documents without declaration, or using a declaration written in another name. At the same time, the opinions of scientists*

regarding the content of each act, representing the objective side of this crime, the explanations of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan were carefully analyzed, and the author's conclusions on each case were presented.

Keywords: *smuggling, object of crime, objective side of the crime, subject of the crime, public safety, customs control, concealment from customs control, customs documents, customs instruments, fraudulent use, declaration, transfer*

Kirish

Muayyan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb baholash uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisi nazariy jihatdan jinoyat tarkibini tashkil etadi. Ma'lumki, obyektiv belgilar deganda jinoyat tarkibining obyeksi va obyektiv tomoni tushuniladi.

Jinoyat obyeksi jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardir [1, 139-b.]. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, kontrabanda jinoyati ham, o'z navbatida, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan muayyan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi yoki shunday zarar yetkazishning real xavfini keltirib chiqaradi, shu sababdan Jinoyat kodeksining 14-moddasi mazmunidan kelib chiqib, bunday ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat deb topiladi. Shunday ekan, kontrabanda jinoyatini yuridik tahlil qilishda, eng avvalo, mazkur jinoyatning obyektiv muammolarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Kontrabanda jinoyatining obyektini to'g'ri aniqlash, ushbu jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sababi bunday holatda kontrabandaning aynan qaysi munosabatlarga tajovuz qilishi uning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalaydi. Bu haqda M. Usmonaliyev "jinoyatning obyeksi har bir jinoyat tarkibining zaruriy belgisidir. Jinoyatning obyeksi har bir tarkibning zaruriy belgisi bo'lishi bilan birga, muayyan jinoyatning mohiyati va uning ijtimoiy xavflilik darajasini ham belgilaydi" [2, 154-b.], deb ta'kidlagan edi. Shu jihatdan olib qaraganda, kontrabanda jinoyatining obyektini tahlil qilish va o'rganish asosida uning ijtimoiy xavfliligi namoyon bo'ladi. Xususan, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tizimida kontrabanda jinoyatining ijtimoiy xavfliligi alohida o'rin egallaydi.

Material va metodlar

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat obyektlarini "vertikal" va "gorizontal" tasniflash odat tusini olgan. Jinoyat obyektlarini tasniflashning to'rt bosqichli tizimidan kelib chiqib kontrabandaning umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlari farqlanadi [3, 203-b.]. Bundan tashqari, "gorizontal" tasnifga ko'ra, kontrabandaning bevosita obyektini asosiy, qo'shimcha va fakultativ obyektlarga ajratish maqsadga muvofiq.

M.M. Qodirovning fikricha, mazkur jinoyatning obyeksi jamoat xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir [4, 307-b.]. Xuddi shunday fikr O.G'. Zokirova [5, 12-b.] tomonidan ham ta'kidlangan. Ammo bu fikrlar nisbatan umumiy xarakterda bo'lib, kontrabanda jinoyatining obyeksi masalasini to'liq ifoda eta olmaydi. M.H. Rustambayevning fikricha esa "mazkur jinoyatning bevosita obyeksi qonunda

belgilangan tartibda fuqarolik muomalasidan chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi bojxona chegaralaridan o'tkazish taqiqlangan tovarlarni olib o'tishni tartibga soluvchi, davlat yuridik va jismoniy shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi". Bu yerda kontrabandaning bevosita obyekti masalasi to'liqroq yoritilgan bo'lsa-da, ammo jinoyat obyektining yuqorida keltirilgan tasnifiga e'tibor qaratsak, bu fikr ham kontrabanda jinoyatining obyekti xususida to'liqroq xulosa chiqarishimizga imkoniyat yaratmaydi.

Tadqiqot natijalari

Mazkur masala yuzasidan chet el olimlarining fikrini o'rganadigan bo'lsak, kontrabandaning maxsus obyekti sifatida aksariyat tadqiqotchilar jamiyatning iqtisodiy tizimini [6, 131-b.] yoki mamlakat iqtisodiyotining normal faoliyati va rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar majmuini [7, 111-b.] qayd etadilar.

Ayrim yuridik adabiyotlarda kontrabandaning turdosh obyektini belgilashga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Aksariyat olimlar bunday obyekt sifatida iqtisodiyot sohasidagi normal faoliyatni [6, 131-b.], normal iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga doir ijtimoiy munosabatlarni [7, 143-b.], iqtisodiy faoliyat sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni [6, 178-b.], qonuniy iqtisodiy faoliyatga doir munosabatlarni [8, 388-b.] belgilaydilar.

Ayni paytda A.I. Chuchayev va S.Y. Ivanova kontrabanda jinoyatining turdosh obyekti sifatida bojxona organlarining iqtisodiy, fiskal va muhofaza maqsadlariga erishishga qaratilgan, qonun yo'li bilan tartibga solingan faoliyatini ko'rsatadilar [9, 43-b.]. Shunga o'xshash fikrni S.I. Nikulin va N.I. Pikurov ham ilgari suradilar. Ular kontrabandani davlatning moliyaviy manfaatlariga tajovuz qiluvchi jinoyatlar guruhiga kiritadilar va amalda mazkur manfaatlarini ushbu jinoyatning turdosh obyekti sifatida e'tirof etadilar [10, 187-b.].

Ba'zi bir olimlar kontrabandaning turdosh obyekti sifatida bojxona ishi sohasida tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali o'tkazish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni belgilaydilar. Bojxona huquqiga doir yuridik adabiyotlarda bunday munosabatlar bojxona organlari davlat chegarasini iqtisodiy qo'riqlash funksiyasini va ushbu chegara orqali predmetlar o'tkazilishi ustidan politsiya nazoratini amalga oshirishlari munosabati bilan yuzaga keluvchi munosabatlar sifatida tavsiflanadi [11, 192-b.; 12, 10-b.; 9, 43-b.].

Mazkur ijtimoiy munosabatlar o'z mohiyatiga ko'ra boshqaruvga doir munosabatlar hisoblanadi. Ularning tarkibiy tuzilishini bojxona ishining u yoki bu tarkibiy elementini boshqarish xususiyatlarini aks ettiruvchi alohida, nisbatan tor ijtimoiy munosabatlar guruhlari tashkil etadi. Agar ularga bojxona ishi sohasidagi jinoyatlarni tatbiq etadigan bo'lsak, ularning har biri ijtimoiy munosabatlarning mazkur guruhlardan biriga qaratilgani ayon bo'ladi. Binobarin, ayni shu munosabatlar mazkur jinoyatlarning bevosita obyektlari hisoblanadi.

Afsuski, yuqoridagi mualliflar tomonidan berilgan fikrlarda mazkur jinoyatning obyekti mufassal yoritib berilmagan. Holbuki, jinoyat huquqida umum e'tirof etilgan jinoyat obyekti turlari, ya'ni jinoyatning umumiy, maxsus, turdosh hamda bevosita obyektlarini aniqlash muhimdir.

Mazkur jinoyatning umumiy obyekti sifatida JKning 2-moddasida belgilangan, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan munosabatlarni e'tirof etish mumkin.

Maxsus obyektlar esa jamoat xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlardir. Jamoat xavfsizligi deganda shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar, favqulodda holatlar oqibatlari, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, epizootiya, yirik halokatlar, avariya va yong'inlardan himoyalanganlik holati [13, 167-b.] tushuniladi. Kontrabandaning turdosh obyekti erkin fuqarolik muomalasidan chiqarilgan yoki erkin fuqarolik muomalasida bo'lishi cheklangan predmetlar bilan muomalada bo'lish tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Erkin fuqarolik muomalasidan chiqarilgan yoki erkin fuqarolik muomalasida bo'lishi cheklangan tovarlar va boshqa predmetlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish tartibi va shartlarini belgilovchi ijtimoiy munosabatlarni kontrabanda jinoyatining bevosita asosiy obyekti deb hisoblash o'rinli bo'ladi. Zotan, bojxona ishining tarkibiy qismi sifatida ular Bojxona kodeksida ko'rsatilgan davlat bojxona siyosatining maqsad va vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Kontrabanda jinoyati bevosita asosiy obyektlar bilan bir qatorda bevosita qo'shimcha va bevosita fakultativ obyektlarga ham tajovuz qiladi.

Kontrabandaning bevosita qo'shimcha obyekti mazkur jinoyat predmeti va uni sodir etish usullariga bog'liq bo'ladi. Kontrabanda uchun bunday obyektlar sifatida yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalar, shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallar kontrabandasida – mudofaa qobiliyati va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, xizmat lavozimidan foydalangan holda bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib sodir etilgan kontrabandada esa bojxona organlarining normal faoliyati amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan tovarlar va predmetlarni noqonuniy o'tkazishda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarish tartibi buziladi. U tovar va predmetlarni chegaradan o'tkazishning umumiy tartibini, alohida tovar va predmetlar guruhiga nisbatan esa – maxsus tartibni o'z ichiga oladi.

Kontrabanda bilan bog'liq jinoyatlar:

- 1) iqtisodiy xavfsizlikka;
- 2) jamoat xavfsizligiga (giyohvandlik vositalari, psixotrop va boshqa moddalar, o'qotar qurollar va shu kabilar noqonuniy o'tkazilganda);
- 3) O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligiga, jahon hamjamiyati xavfsizligiga (ommaviy qirg'in quroli hamda shunday qurolni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalar noqonuniy olib kirilgan yoki olib chiqilganda);
- 4) madaniyat manfaatlariga (madaniy boyliklar kontrabanda qilinganda) zarar yetkazadi yoki ularga zarar yetishi xavfini tug'diradi.

Kontrabanda va jinoyat obyektiga tavsif berishda jinoyat predmeti muhim huquqiy ahamiyat kasb etadi. Undan kelib chiqib qonun chiqaruvchi kontrabandaning ikki turini farqlaydi va ular uchun jazoni differensiatsiyalaydi.

Birinchi turdagi kontrabandaning predmeti tariqasida erkin muomalada bo'lgan har qanday tovarlar va boshqa predmetlar: sanoat va oziq-ovqat tovarlari, xo'jalik-maishiy ahamiyatga molik predmetlar, valyuta, valyuta qimmatliklari, zargarlik buyumlari, transport vositalari, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va boshqalar tilga olingan.

Ikkinchi turdagi kontrabandaning predmeti tariqasida erkin fuqaroviy muomaladan to'liq yoki qisman chiqarilgan tovarlar va boshqa predmetlar (giyohvandlik vositalari; psixotrop, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, radioaktiv yoki portlovchi moddalar; portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurol yoki o'q-dorilar; yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlari) hamda bojxona chegarasidan o'tkazish qoidalari maxsus belgilangan tovarlar va boshqa predmetlar (ommaviy qirg'in qurollarini yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalar)ning to'liq ro'yxati berilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Kontrabandaning obyektiv tomoni JK 246-moddasi birinchi qismi yoki ikkinchi qismida ko'rsatilgan predmetlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan har qanday usul bilan, shu jumladan, xalqaro pochta orqali jo'natish, quvurli transport va elektr uzatish tarmoqlaridan foydalanish yo'li bilan o'tkazish, ya'ni ularni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish (eksport qilish) yoki uning hududiga olib kirish (import qilish)dan iborat bo'ladi. Odatda kontrabanda faol harakatlar shaklida sodir etiladi, biroq uni jinoiy harakatsizlik yo'li bilan sodir etish holatlari ham uchrab turadi. Bunday holatlarda jinoyat bir nechta sherik, shu jumladan, uyushgan guruh tomonidan sodir etilib, ayrim sheriklarning jinoyatni sodir etishda tutgan o'rni tovarlarni bojxona chegarasidan bevosita o'tkazish harakatlarini sodir etishga bog'liq bo'lmasligi mumkin.

Obyektiv tomondan JK 246-moddasida nazarda tutilgan jinoyat O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan turli shakllarda:

- bojxona nazoratini chetlab;
- bojxona nazoratidan yashirib;
- bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib;
- deklaratsiyasiz;
- boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib olib o'tishda ifodalanadi.

Kontrabanda uchun jinoiy javobgarlik JK 246-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan ashyolar O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazilgan taqdirda, bu ashyolar o'zga MDH mamlakatlariga yoki MDHga kirmagan mamlakatlarga o'tkazilganligidan qat'i nazar vujudga keladi. JKning 246-va 182-moddalari dispozitsiyasida nazarda tutilgan ashyolarni, tovar va boshqa qimmatliklarni bojxona nazoratini chetlab O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish deganda ularni bojxona organi bo'lmagan joydan yoki bojxona rasmiylashtiruv va nazorati amalga oshiriladigan paytdan tashqari vaqtda o'tkazishni tushunmoq lozim.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-moddasiga muvofiq, tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish deganda, tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirish yoxud ushbu hududdan olib chiqish tushuniladi.

R. Kabulovning fikricha, tovarlarni olib o'tish (yoki boshqa tarzda ko'chirish) nazoratsiz yoki nazoratdan yashirib o'tish maxsus tayyorlangan narsa yashiradigan hamyonlar, joylarda bojxona chegarasidan boyliklarni yashirib olib o'tayotganda, shuningdek, ushbu maqsadlarda maxsus moslashgan idishlar yoki transport vositalaridagi pana joylar, bagajlar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, ikki qavat tagligi bo'lgan jomadon yoki konserva bankasidan foydalanish, kiyimda bo'shliq yoki narsa yashiradigan joylarni qoldirish va hokazolar)da namoyon bo'ladi [4, 232-b.].

Shuni e'tirof etish lozimki, bojxona nazorati deganda qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmui tushuniladi.

Kontrabanda predmetini bojxona nazoratini chetlagan holda o'tkazish deganda kontrabanda buyumlarining ularni o'tkazish uchun zarur bo'lgan tegishli hujjatlarning bojxona organi xodimlari tekshiruvsiz yoki bojxona idoralari belgilagan joylardan o'zga joydan yoki bojxona nazoratini amalga oshirish vaqtidan boshqa vaqtda o'tkazilishi tushuniladi.

Bojxona nazoratidan yashirish deganda, kontrabanda buyumlarini xufiya joylardan va topishni qiyinlashtiradigan usullardan foydalanib yoki bir tusdagi ashyoga ikkinchisining ko'rinishini berib o'tkazishni tushunmoq lozim.

Maxsus saqlash joylari deb xufiya joylarni, shuningdek, kontrabanda maqsadlarida transport vositalariga oldindan qayta ishlanib, yig'ilib va shunga o'xshash yo'llar bilan jihozlangan va moslashtirilgan konstruktiv sig'imli idishlarni va boshqa ashyolarni hisoblamok kerak.

Hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish deganda, ashyolarni, tovar va boshqa qimmatliklarni bojxona chegarasidan o'tkazish uchun asos tariqasida qalbaki hujjatlarni, qonunga xilof yo'llar bilan olingan hujjatlarni yoxud yolg'on ma'lumotlar yozilgan hujjatlarni bojxona nazoratiga taqdim etishni tushunish lozim. R. Kabulovning fikricha, bojxonanikiga o'xshash hujjatlar yoki vositalardan aldov yo'lida foydalanish aybdorning soxta hujjatlar taqdim etish yo'li bilan bojxona chegarasidan tovarlar yoki boshqa boyliklarni noqonuniy olib o'tishini bildiradi [4, 233-b.]. Aybdor faqat soxta hujjatlardan foydalanib qolmay, balki haqiqiy hujjatlarga ham olib o'tilayotgan yuk va hokazolarning miqdori, hajmi, bahosi to'g'risida tuzatishlar va qo'shimchalardan iborat o'zgarishlar kiritadi.

Bojxona identifikatsiya vositalari deganda, so'rg'ichlash, muhrlash, raqamli, harfli va boshqacha tamg'alar, identifikatsiya belgilarini qo'yish, shtamplash, namuna va nusxalar olish, tovarlarni, boshqa qimmatliklarni xatlash, chizmalar tuzish, miqyosni tasvirlash, fotosuratlar, rasmlar tayyorlash, tovarlar bilan birga yuboriladigan va boshqa hujjatlardan foydalanish va hokazolar tushuniladi.

Kontrabanda predmetlarini deklaratsiyaga kiritmaslik yoki o'zgacha nom bilan deklaratsiyaga kiritish deganda shaxslarning chegaradan o'tkazilishi lozim bo'lgan



kontrabanda ashyolarini yoxud tovar yoki boshqa qimmatliklarni deklaratsiya qilish tartibini buzishi bilan bog'liq harakatlari, ya'ni bojxona qonunlari tomonidan o'rnatilgan deklaratsiya qilish formasi va joyi to'g'risidagi, uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi, deklaratsiya va boshqa qo'shimcha hujjatlar taqdim etish muddatlari to'g'risidagi talablarga rioya etmaslik, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan yoki uning hududidan olib chiqilayotgan kontrabanda ashyolari, tovar yoki boshqa qimmatliklarning turi, soni xususida deklaratsiyaga soxta ma'lumotlar kiritish tushuniladi. R. Kabulovning fikricha, bayon qilinmagan yoki o'zga nom bilan bayon qilingan tovarlar yoki boshqa boyliklarni ko'rsatish tovarlarni bojxona chegarasidan nomini ko'rsatib yoki o'zga nom bilan olib o'tishni taqozo etadi [4, 233-b.].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining tushuntirishiga ko'ra, bojxona organi tomonidan bojxona deklaratsiyasini tekshirish, tovarlarni ko'zdan kechirish va bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlar noto'g'riligi aniqlangunga qadar bojxona deklaratsiyasida yo'l qo'yilgan xatolarning deklarant tomonidan mustaqil tuzatilishi ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni istisno etadi. Bojxona deklaratsiyasi va bojxona maqsadlari uchun zarur boshqa hujjatlar berilguniga qadar tovarlarni bojxona nazorati ostida ko'zdan kechirish hamda o'lchash, ularning namunalari va nusxalarini olish huquqi (Bojxona kodeksi 275-moddasi)dan deklarantning foydalanmaganligi uning javobgarligini istisno etmaydi [14, 15].

Tovarlar yoki boshqa predmetlar O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazilgan, ya'ni uning bojxona hududiga olib kirilgan yoki undan boshqa davlatning hududiga, erkin bojxona mintaqasiga yoki erkin omborga olib chiqilgan vaqtdan boshlab kontrabanda tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi.

Kontrabandada jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyatga suiqasd bosqichlari ham mavjud bo'lishi mumkin. Kontrabandaga tayyorgarlik ko'rish tariqasida, masalan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar, giyohvandlik vositalarini olib chiqishga litsenziyalarni, milliy qadriyatlarni olib chiqishga guvohnomalarni noqonuniy qo'lga kiritish borasidagi harakatlar; yashirin joylarni jihozlash; boshqa shaxslarni kontrabandani va ushbu jinoyatni sodir etish uchun sharoit yaratishga qaratilgan boshqa harakatlarni birgalikda sodir etishga og'dirishni ko'zdan kechirish kerak. Biroq shuni qayd etib o'tish lozimki, tayyorgarlik ko'rish harakatlari yashirin kechishi va ularni isbotlash qiyin bo'lgani sababli jinoiy ishlar ushbu bosqichda juda kam qo'zg'atiladi.

Sud amaliyoti tovar O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tgan damdan boshlab kontrabandani tamom bo'lgan jinoyat deb tan oladi.

Bu kontrabandani ham O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish (import qilish), ham O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish (eksport qilish)da kontrabanda predmetlari bojxona chegarasidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab tamom bo'lgan jinoyat deb topish imkonini beradi. Bunday o'tkazish tamom bo'lmagunga qadar qilmish, aniqlangan jinoyat qayerda to'xtatilganidan qat'i nazar, tegishli ravishda faqat kontrabandaga tayyorgarlik ko'rish yoki uni sodir etishga suiqasd alomatlarigagina ega bo'ladi.

Yuqoridagi tahlildan shunday xulosaga kelish mumkinki, kontrabandada jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgisi hisoblangan jinoyat sodir etish joyi, usuli,

vaqti, quroli jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun zaruriy belgi sifatida e'tirof etilishi lozim.

Masalan, kontrabanda jinoyatining obyektiv tomoni fakultativ belgisi sifatida jinoyat sodir etish joyi O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi hisoblanadi. Bojxona chegarasi deganda, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududining sarhadlari, shuningdek, erkin bojxona zonalari va erkin omborlarning tegralari tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining quruqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlari hamda ular ustidagi havo bo'shlig'i bojxona hududini tashkil etadi.

Shuni qayd etish lozimki, jinoyat aynan bojxona chegarasi (jinoyat sodir etish joyi) orqali bojxona nazoratini chetlab yoki yashirib yoxud yuqorida qayd etilgan boshqa usullar orqali kontrabanda predmetini olib o'tishda ifodalanadi. Mazkur predmetlarni bojxona chegarasi hisoblanmagan boshqa joylarda olib yurish, albatta, kontrabanda sifatida kvalifikatsiya qilinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin, ularning hududlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi. Bojxona hududi sarhadlari, shuningdek, erkin bojxona zonalari va erkin omborlarning tegralari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi hisoblanadi. Demak, shaxs harakatlarini jinoiy deb topishda jinoyat sodir etish joyi jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holatlar deb topilishi lozimligi haqidagi qoida mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak (JKning 56-moddasi 1-qismi "i"-bandi), jinoyat sodir etish sharoiti kontrabanda jinoyati uchun javobgarlik masalasini belgilashda zaruriy ahamiyatga ega bo'lmaydi, balki jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi holat sifatida qaralishi lozim [5].

Shuningdek, jinoyat vositasi ham jinoyatni kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi. Xususan, kontrabanda jinoyati sodir etilgan deb topish uchun shaxs tomonidan bojxona hujjatlari yoki vositalarga o'xshatib yasalgan hujjat va vositalardan aldash yo'li bilan foydalanilgan yoki deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanilgan bo'lishi zarur.

Xulosalar

Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan shaxsga bojxona chegarasi orqali ma'lum bir tovar va ashyolarni qonuniy asosda olib o'tish huquqini beradigan hujjatlar sirasiga belgilangan tartibda to'ldirilgan bojxona deklaratsiyasi, muayyan tovarlarni olib o'tishga ruxsat etadigan tashkilot va muassasalar tomonidan berilgan hujjatlar, masalan, valyuta sotib olib, uni olib o'tish haqida bank tomonidan berilgan ma'lumotnoma kiradi. Bunday hujjatlardan aldov yo'li bilan foydalanish deganda, haqiqiy ish blankalariga o'chirish yoki to'g'rilash yo'li bilan yolg'on ma'lumotlar kiritib, ularni soxtalashtirish; muddati o'tib ketgan hujjatlarga boshqa tovar va ashyolarga taalluqli tavsif va ma'lumotlarni kiritish tushuniladi.

Bundan tashqari, jinoyatni sodir etish usuli ham jinoiy javobgarlikni belgilashda zaruriy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ya'ni bojxona nazoratini chetlab, bojxona



nazoratidan yashirib, bojxona hujjatlari yoki vositalarga o'xshatib yasalgan hujjat va vositalardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib jinoyat predmetining chegaradan olib o'tilishi jinoyatni sodir etish usuli hisoblanadi.

REFERENCES

1. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2011, p. 139.
2. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism [Criminal law. General part]. Tashkent, 2005, p. 154.
3. Frolov Ye.A. Spornyye voprosy ucheniya ob ob'yekte prestupleniya [Dubious questions of teaching objectify crimes]. *Collection of Scientific Papers*. Sverdlovsk, 1968, p. 203.
4. G'ulomov Z.X., Zufarov R.A., Kabulov R.K., Qodirov M.M. et al. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1997, p. 307.
5. Zokirova O.G'. Kontrabanda uchun jinoiy javobgarlik [Criminal liability for smuggling]. Tashkent, 2007, p. 12.
6. Ugolovnoye pravo Rossii. Osobennaya chast' [Criminal law of Russia. Special part]. Moscow, 1996, p. 131.
7. Ugolovnoye pravo Rossii. Osobennaya chast' [Criminal law of Russia. Special part]. Moscow, 1997, p. 111.
8. Ugolovnoye pravo. Obshhaya i Osobennaya chasti [Criminal law. General and special parts]. Eds. N.I. Vetrova, Y.I. Lyapunova. Moscow, 2001, pp. 388–389.
9. Chuchaev A.I. Tamozhennyye prestupleniya v novom UK RF [Customs crimes in the new Criminal Code of the Russian Federation]. 1998, p. 43.
10. Rossiyskoye ugolovnoye pravo. Osobennaya chast' [Russian Criminal law. Special part]. Eds. M.P. Zhuravleva, S.I. Nikulina. Moscow, 2001, p. 187.
11. Tamozhennoye pravo [Customs law]. Ed. B.N. Gabrichidze. Moscow, 1995, p. 192.
12. Kozyrin A.N. Tamozhennoye pravo Rossii [Customs law of Russia]. Moscow, 1995, p. 10.
13. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Legal encyclopedia of Uzbekistan]. Tashkent, 2009, p. 167.
14. Khamidov N. Conditions enabling the commission of some transnational organized crimes. 2022.
15. Khamidov, Nurmukhammad. Peculiarities of Legal Error in the Criminal Law of Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*. 2023, pp. 91–95.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.3./RQYR9393>
UDC: 343.12(045)(575.1)

JINOYAT ISHINI TORTISHUVGA ASOSAN YURITISHDA TARAFLAR FAOLLIGINI KUCHAYTIRISH

Maxmadiyarova Xumora O'ktamovna,

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahri
Chilonzor tumani sudi sudyasi yordamchisi

ORCID: 0009-0006-3214-8183

e-mail: humoramahmadiyarova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat ishlari bo'yicha sud muhokamasi jarayonida taraflarning o'zaro tortishuvini kuchaytirish, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan taraflar protsessual imkoniyatlaridagi tengligini ta'minlash, shuningdek, haqiqatni aniqlash jarayonida sudning o'rnini aniqlash, uning dalillarni to'plash, tekshirish va baholash davrida faollik darajasini belgilash masalalari ayrim rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda aynan shu masalada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan protsessualist olimlarning ilmiy qarashlari asosida tahlil o'tkazilgan. Shuningdek, maqolada birinchi instansiya sudi majlisida jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda sud tergovni bosqichining o'ziga xos o'rni, aynan taraflarning tortishuviga asoslangan sud tergovni jarayonini takomillashtirish masalalari muhokama qilingan. Shuningdek, maqolada jinoyat protsessida sud tergovni bosqichini rivojlantirish yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Xorijiy mamlakatlardagi protsessualist olimlarning bu jarayonda sudning isbot qilish jarayonidagi o'rnini takomillashtirish borasidagi fikrlari, amaliyotda o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari, sud tergovida tortishuv prinsipining o'ziga xosligi bayon etilgan. Shu bilan birga, jinoyat ishini ko'rib chiqishda sud tergovni bosqichini takomillashtirish yuzasidan jinoyat-protsessual qonunchilikka o'zgartirish kiritish yuzasidan tavsiya va takliflar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: tortishuv, haqiqatni aniqlash, sud, ayblov taraf, himoya taraf, isbotlash.

УСИЛЕНИЕ АКТИВНОСТИ СТОРОН ПРИ СОСТЯЗАТЕЛЬНОМ РАССМОТРЕНИИ УГОЛОВНОГО ДЕЛА

Махмадиярова Хумора Уктамовна,

помощник судьи Чиланзарского районного суда
по уголовным делам города Ташкента

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы усиления взаимной аргументации сторон при рассмотрении уголовных дел, обеспечения

равенства процессуальных возможностей сторон, что является важной составляющей судебного разбирательства, а также определения позиции суда в процессе установления истины, уровня его активности в период сбора, проверки и оценки доказательств, анализ проводился в том числе на основе опыта некоторых развитых зарубежных стран и научных взглядов учёных-процессуалистов, проводивших научные исследования по этой проблеме. Также в статье рассматривается особая роль стадии судебного следствия при рассмотрении уголовных дел в заседании суда первой инстанции, вопросы совершенствования процесса судебного следствия на основе доводов сторон. Также в статье анализируется опыт зарубежных стран по развитию стадии судебного расследования в уголовном судопроизводстве. Изложены мнения учёных-процессуалистов зарубежных стран относительно повышения роли суда в процессе доказывания, результаты опросов, проведённых на практике, уникальность принципа состязательности в судебном расследовании. Вместе с тем были обсуждены рекомендации и предложения по внесению изменений в уголовно-процессуальное законодательство относительно совершенствования стадии судебного расследования при рассмотрении уголовного дела.

Ключевые слова: спор, установление истины, судебное разбирательство, обвинение, защита, доказывание.

STRENGTHENING THE ACTIVITY OF THE PARTIES IN THE CONSIDERATION OF A CRIMINAL CASE

Makhmadiyarova Khumora Uktamovna,
Assistant judge of the Chilanzor District
Court for Criminal Cases of Tashkent city

Abstract. *This article considers the issues of strengthening the mutual argumentation of the parties in the consideration of criminal cases, ensuring equality of procedural opportunities of the parties, which is an important component of it, as well as determining the position of the court. In the process of establishing the truth and determining the level of its activity in the collection, verification, and evaluation of evidence, some advanced foreign analysis was carried out on the basis of the experience of countries and the scientific views of scientists who conducted scientific research on this issue. The article also considers the special role of the stage of judicial investigation in the consideration of criminal cases in the session of the court of first instance and the issues of improving the process of judicial investigation based on the arguments of the parties. The article also analyzes the experience of foreign countries in the development of the stage of judicial investigation in criminal proceedings. Opinions of scientists of foreign countries regarding the increase of the role of the court in the process of proving, the results of surveys conducted in practice, and the uniqueness of the adversarial principle in the judicial investigation are stated. At the same time, recommendations and proposals for amendments to the criminal procedural legislation*

regarding the improvement of the stage of judicial investigation in the consideration of a criminal case were discussed.

Keywords: *dispute, truth establishment, trial, prosecution, defense, proof.*

Kirish

Tortishuvga asoslangan ish yuritishning ayrim xorijiy mamlakatlardagi holati tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu protsessual shakl jinoyat ishi yurituvini tashkil etishning hozirgi davrdagi eng samarali modeli hisoblanadi. Shuning uchun dastlab anglo-saxon huquq oilasida paydo bo'lgan ushbu huquq instituti keyinchalik romano-german huquq oilasida ham ahamiyatini kuchaytirdi. Shunday bo'lsa-da, xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual huquqida tortishuv prinsipi mohiyati va uning qo'llanish doirasi xususida yagona yondashuv mavjud emas va bunday qarama-qarshilik qonunchilikka ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmagan.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi tortishuv prinsipini quyidagicha tushuntirgan:

- ayblov, himoya va ishni hal etish vazifalari bir-biridan ajratilgan bo'lib, bitta shaxs yoki bitta organga yuklatilishi mumkin emas (JPK 25-moddasi 2-qismi);

- sud jinoiy ta'qibni amalga oshirmaydi: u himoya yoki ayblov tomonida turmaydi. U protsess ishtirokchilari o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishi yoki majburiyatlarini bajarishi uchun sharoit yaratib beradi (JPK 25-moddasi 6-qismi);

- birinchi instansiya, shuningdek, ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi (JPK 25-moddasi 1-qismi). Bundan ko'rinadiki, JPKning 25-moddasiga ko'ra, faqatgina sudda ishlarni yuritish tortishuvga asoslangan. Chunki tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov jinoyat ishini yuritishga mas'ul mansabdor shaxslarning to'liq nazorati ostida olib boriladi va ularning protsessual vakolatlarini himoya pozitsiyasidagi shaxslarning dalillarni to'plash va dalillarga baho berish bilan bog'liq huquqlari bilan solishtirib bo'lmaydi. Ammo jinoyat ishlarini yuritishda prokuror yoki sud nazorati bilan bog'liq ayrim tartib-qoidalar mavjudki, aynan ular ishni sudga qadar yuritishda ham tortishuv ishlashini ta'minlaydi.

Material va metodlar

Jinoyat-protsessual huquqida sudyaning haqiqatni aniqlashdagi o'rni, uning isbotlash jarayonidagi ishtiroki chegarasi yuzasidan jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida yagona to'xtam mavjud emas. Ayniqsa, shunday munozarali masalalar borki, ularning to'g'ri hal etilishi tortishuvni amalga oshirish sharoitida sudning holatini belgilab beradi. Xususan:

- sudning isbotlash ishtirokchilari toifasiga kiritilishining maqsadga muvofiqligini aniqlash;

- taraflarning tortishuvchanligi sharoitida sud faolligining chegarasi va darajasini belgilash;

- sudning o'z tashabbusiga ko'ra dalillarni to'plashining u bajaradigan ishni hal qilish vazifasi yoki xolis, betarafligiga qay darajada to'g'ri kelishini aniqlash.



Taraflar tortishuvi sharoitida sudning sust ishtirokchiga aylanishi va faqat taraflar tomonidan taqdim etilgan dalillarga tayangan holdagina ish holatlarini o'rganishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi bilan mustahkamlangan fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqining qo'pol buzilishiga olib keladi. Shuningdek, ish holatlarining sud tomonidan yetarlicha o'rganilmasligi yoki sud muhokamasining to'liq emasligi va bir yoqlama olib borilganligi yuqori sud instansiyalarida hukmning o'zgarishiga, hattoki bekor bo'lishiga ham olib kelmoqda. Bunday holatlarning ko'pligini quyidagi amaliy misol orqali ham tahlil qilish mumkin.

Xususan, Jinoyat ishlari bo'yicha Mo'ynoq tumani sudining 2022-yil 18-apreldagi hukmiga ko'ra, G.K. JK 116-moddasining 3-qismi bilan aybsiz deb topilib, JPK 83-moddasining 2-qismiga asosan oqlangan. Mazkur ish bo'yicha D.A. bilan R.S. ham sudlangan bo'lib, ularga nisbatan ayblov hukmi chiqarilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining 2022-yil 22-iyundagi ajrimi bilan G.K.ga nisbatan chiqarilgan oqlov hukmi o'zgarishsiz qoldirilgan. Biroq Oliy Sud Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati kassatsiya instansiyasining 2022-yil 22-iyuldagi ajrimi bilan apellatsiya instansiyasi sudining G.K.ga nisbatan chiqarilgan ajrimi bekor qilinib, jinoyat ishining shu qismi yangidan apellatsiya tartibida ko'rish uchun yuborilgan. Sud ajrimining bekor qilinishiga sudlar oqlov hukmi chiqarishda ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqmaganligi sabab bo'lgan.

Ishda aniqlangan holatlarga qaraganda, 2021-yil 14-fevral kuni soat 19:30 larda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy perinatal markazida N.Y.ning muddatidan oldin homilasining yigirma uch haftaligida tug'ilgan chaqalog'i o'z vaqtida to'g'ri davolash choralari ko'rilmagan, agonal holatda bo'lgan chaqaloq o'ldi deb patologo-anatomik tekshirishga berib yuborilgan, buning oqibatida neonatal davrida bo'lgan go'dak past temperaturalarda saqlangan (buning uchun D.A. va R.S.ga ayblov hukmi chiqarilgan) va tirik chaqaloqda ko'krak teri qatlami kesilganida u yuz bergan og'riq natijasida vafot etgan.

Komissiyaviy sud-tibbiyot ekspertizasining 2021-yil 26-oktabrdagi 108-sonli xulosasida boshqa sabablar qatori, patologo-anatomik tadqiqot, ya'ni anatomik kesmajarohat tirik chaqaloqda o'tkazilganligi aniqlanib, lozim darajada davolash muolajalari o'tkazilganida chaqaloqning hayotini saqlab qolish imkoni mavjud bo'lganligi haqida xulosa bergan bir vaziyatda sudlar, xususan, apellatsiya instansiyasi sudi G.K.ning aybsizligi haqidagi vajlari yuqorida qayd etilgan ekspertiza xulosasiga zidligi nuqtayi nazaridan to'la, har tomonlama va sinchkovlik bilan tekshirib, mavjud qarama-qarshilikni bartaraf etish chorasini ko'rmagan.

Qayd etilganlarning barchasi sud muhokamasining to'liq emasligi va bir yoqlama olib borilganini, sud o'z xulosasiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olmaganini va ish yuritishda yuqorida qayd etilgan qonun talablariga rioya etmaganini anglatadi [1].

Tadqiqot natijalari

